

## “Akademiada” sport musobaqalari o'tkazildi

Joriy yil 11-iyun kuni Toshkent Botanika bog'ida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va O'zR FA Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan FA xodimlari o'rtasida “Akademiada” sport musobaqalari o'tkazildi.





Ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlari “Akademkross” ayollar va erkaklar (18-35 yosh, 36-55 yosh va 55 yoshdan yuqori xodimlar), stol tennisi, shaxmat ( ayollar va erkaklar) sport turlari bo‘yicha o‘zaro kuch sinashdi.

“Akademiada-2022” sport musobaqalarining “Akademkoross”, badminton, shaxmat va stol tennisi bo‘yicha 1-o‘rin g‘oliblari 1-darajali diplom va 500.000 (besh yuz ming) so‘m, 2-o‘rin g‘oliblari 2-darajali diplom va 450.000 ( to‘rt yuz ellik ming) so‘m, 3- o‘rin g‘oliblari 3-darajali diplom va 400.000 (to‘rt yuz ming) so‘m miqdorida pul mukofoti va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.



Eslatib o‘tamiz, joriy yil 4-5-iyun kunlari “Rahbar kubogi” uchun badminton (ayollar va erkaklar), Mini futbol

(erkaklar) o'rtasida, "Akademiada-2022" sport musobaqalari final bosqichi o'tkazilgan edi. Mini futbol sport turi bo'yicha 1- o'rin g'oliblari 1-darajali diplom va 4.000.000 so'm, 2-o'rin g'oliblari 2-darajali diplom va 3.500.000 so'm, 3-o'rin g'oliblari 3-darajali diplom va 3.000.000 so'm miqdorida pul mukofoti bilan taqdirlandi.